

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI  
FIZIKA-MATEMATIKA FAKULTETI**

**INFORMATIKA KAFEDRASI**

**Qo‘lyozma huquqida**

**NABIJONOV FAYZULLO DILSHOD O‘G‘LI**

**WINDOWS OPERATIONS TIZIMINI  
SOZLASHDA LOKAL GURUH SIYOSATI  
(LOCAL GROUP POLICY OBJECT)  
METODIKASI**

**5110700 – Informatika o‘qitish metodikasi ta‘lim yo‘nalishi  
bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun yozilgan**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ish rahbari:**

**katta o‘qituvchi M.Abduvoxidov**

**Andijon – 2015**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. LOKAL GURUH SIYOSATINING UMUMIY</b>	
<b>TUSHUNCHALARI .....</b>	<b>5</b>
1.1. Guruh siyosati .....	5
1.2. Lokal va tarmoq orqali beriluvchi guruh siyosatlari .....	5
1.3. Tarmoqda kompyuterlarni Active Directory tomonidan sozlash .....	6
<b>II BOB. GURUH SIYOSATI KATEGORIYALARI .....</b>	<b>9</b>
2.1. Kompyuter konfiguratsiyalarini sozlash .....	9
2.2. Foydalanuvchi konfiguratsiyalarini sozlash .....	17
<b>III BOB. «GURUH SIYOSATI» MAVZUSINI O‘TISHDA</b>	
<b>NOAN’ANAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN</b>	
<b>FOYDALANISH METODLARI.....</b>	<b>34</b>
3.1. «Lokal guruh siyosati» mavzusini o‘tishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.....	34
A. Ctrl+Alt+Delete - Operatsion sistemani qayta yuklash, kompyuterni qayta o‘chirib yoqish. ....	48
3.2. «Ish stoli parametrlarini sozlash» mavzusini o‘qitish metodikasi.....	53
<b>XULOSA .....</b>	<b>57</b>
<b>ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....</b>	<b>58</b>

## KIRISH

Muhtaram yurtboshimiz Islom Abdugʻaniyevich Karimovning «...yoshlarimizning maʼnaviy olamida boʻshliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sogʻlom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuygʻusini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur. Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson maʼnaviyatiga qarshi yoʻnaltirilgan, bir qarashda arziyasiz boʻlib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashtirish shiddatidan kuch olib, koʻzga koʻrinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab boʻlmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin. ...» deya taʼkidlab aytganida asosiy eʼtibor talaba yoshlarga qaratilganligini bir qarashda anglash mumkin. Yoshiga nisbatan olib qaralganda oliy taʼlim muassasalari talabalari axborot olishga ehtiyoji eng koʻp nomzod ekanliklari maʼlum. Shunday ekan, yoshlar ongini milliy ruxda tarbiyalash har bir Oʻzbekiston fuqarosining burchidir. Axborot kommunikatsiya texnologiyalariga juda katta eʼtibor qaratilmoqda. Buning isboti sifatida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 4 fevraldagi ПФ-4702 sonli farmoniga asosan Oʻzbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qoʻmitasi negizida Oʻzbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tashkil etilishini taʼkidlash mumkin. AKT ning rivojlanishiga munosib hissa qoʻshish maqsadida kompyuter texnika vositalaridan oqilona foydalanish uchun unga kerakli cheklovlarni qoʻyish va undan foydalanish metodikasini ishlab chiqishga bagʻishlangan.

**Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi.** oʻquv dargoxlarida, yaʼni, maktab, kollej, akademik litseylar va oliy oʻquv yurtlarida talabalarning

zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari assosida bilim olishlari uchun yetarlicha sharoitlar yaratilib berilmoqda. Lekin barcha talabalar ham bilim olish uchun bunday sharoitlardan oqilona foydalanishavermaydi. Misol uchun keltiradigan bo'lsak, kompyuterdan to'g'ri foydalanish o'rniga unga o'yin dasturlarini o'rnatib o'yin o'ynab vaqtlarini bexuda sarflashlari, yoki kompyuterlarning stabil ishlashlarini ta'minlash maqsadida ish stoliga o'rnatilgan yarlik, papka yoki dastur fayllarini o'chirib tashlab, zarar yetkazishlari, ish stoli rasmlarini bema'ni rasmlar bilan almashtirishlari, kompyuter dam olishi kerak bo'lganda grafik adapterga kuch keluvchi zastavkalarni o'rnatishlari kabi muammolarni keltirib chiqarishlari mumkin. Bunday vaziyatlar kompyuterlarning xolatini nazorat qiluvchi texnik xodimlarning yoki shu xonada mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchining ish faoliyatini qiyinlashtirishi tabiiy. Bu muammolarni hal qilish uchun guruh siyosatlaridan foydalanish mumkin. Demak, guruh siyosatini o'rganish va o'rgatish metodikasini ishlab chiqish kerak bo'ladi.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsadi** yuqorida aytib o'tilganlarni hisobga olgan holda guruh siyosati bilan ishlash metodikasini o'rganish va ish stoli parametrlarini sozlashga tadbiiq qilishdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishning vazifasi** lokal va tarmoq orqali beriluvchi guruh siyosatlari tushunchalarini yoritish; kompyuter konfiguratsiyalarini sozlash; foydalanuvchi konfiguratsiyalarini sozlash; «Lokal guruh siyosati» mavzusini o'rganish xamda metodlarini ishlab chiqish

## **I BOB. LOKAL GURUH SIYOSATINING UMUMIY TUSHUNCHALARI**

### ***1.1. Guruh siyosati***

Guruh siyosati ishchi muhitni tartibga solish uchun kiritilgan qoidalar va sozlash ishlari to'plamidir. Guruh siyosati odatda domen tarkibida yaratiladi va domen tarkibidagi barcha tizimlarda bir xil taqsimlanadi. Guruh siyosati ob'yekti ikkiga bo'linadi: guruh siyosati konteyneri va guruh siyosati shabloni. Bu ikki komponent ishchi muxitning barcha ma'lumotlarini o'zida mujassamlashtiradi. Active Directory katalogi orqali guruh siyosati tadbiri qilinishi Windows OT bazasidagi kompyuter ishchi guruhini boshqarishni osonlashtiradi. Guruh siyosati Active Directory katalogida yuqoridan pastga qarab tadbiri qilinadi.

Active Directory ierarxiyasida ikkita guruh siyosati yaratiladi: Default Domain Policy (sukut xolatidagi domen siyosati) va Default Domain Controller's Policy (sukut xolatidagi domen kontrolleri siyosati). Birinchisi domen deyiladi, ikkinchisi esa konteyner deb yuritiladi. Agar xususiy GPO obyektini yaratish kerak bo'lsa, u xolda yetarlicha administratorlik imtiyoziga ega bo'lish kerak. Bu imtiyozga odatda Enterprise Administrators (korxonalar administratori) va Domain Administrators (domen administratori) ega bo'ladi.

Active Directoryda administrativ ishlarni amalga oshirish Server tizimlarida amalga oshiriladi. Windows platformasida bu ishlarni amalga oshirish uchun tizim Windows server 2000/2003/2008/2012 kabi operatsion tizimlardan biri bo'lishi kerak.

### ***1.2. Lokal va tarmoq orqali beriluvchi guruh siyosatlari***

Guruh siyosati lokal va tarmoq orqali berilishi mumkin. Tarmoq orqali beriluvchi guruh siyosati yuqorida aytib o'tilgan Active Directory katalogi bo'yicha beriladi. Bunda Active Directory uchun Windowsning server

tipidagi operatsion tizimlari bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Mijoz kompyuter Active Directory katalogida ro'yxatdan o'tkaziladi va foydalanuvchilarning deyarli barcha imtiyozlari server kompyuteri yordamida guruh siyosati ob'yekti orqali nazorat qilinadi.

Agar kompyuter Active Directory katalogiga kiritilmagan bo'lsa, bu kompyuterni boshqarish lokal guruh siyosati orqali amalga oshiriladi.

Lokal guruh siyosati Windows operatsion tizimining hammasida ham mavjud bo'lavermaydi. Bu siyosat lokal kompyuterlarni sozlash uchun hizmat qiladi.

Lokal guruh siyosatini ishga tushirish uchun gpedit.msc dan foydalaniladi

### ***1.3. Tarmoqda kompyuterlarni Active Directory tomonidan sozlash***

#### ***1.3.1. Guruh siyosatini yaratish***

Active Directory ierarxiyasida ikkita guruh siyosati yaratiladi: Default Domain Policy (sukut xolatidagi domen siyosati) va Default Domain Controller's Policy (sukut xolatidagi domen kontrolleri siyosati). Birinchisi domen deyiladi, ikkinchisi esa konteyner deb yuritiladi. Agar xususiy GPO obyektini yaratish kerak bo'lsa, u xolda yetarlicha administratorlik imtiyoziga ega bo'lish kerak. Bu imtiyozga odatda Enterprise Administrators (korxonalar administratori) va Domain Administrators (domen administratori) ega bo'ladi.

Active Directoryda administrativ ishlarni amalga oshirish Server tizimlarida amalga oshiriladi. Windows platformasida bu ishlarni amalga oshirish uchun tizim Windows server 2000/2003/2008/2012 kabi operatsion tizimlardan biri bo'lishi kerak.

Guruh siyosatini tadbiri quyidagilarda amalga oshirilishi mumkin:

- GPO obyektlari konteynerlar munosabatlarida tadbqiq qilinadi, yopiq obyektlarda bu amalga oshirilmaydi;
- Bitta konteyner bir nechta GPO obyektlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin;
- GPO obyektini o‘z ichiga ikkita parametrni: kompyuterga aloqador parametrlar va foydalanuvchiga aloqador parametrlarni oladi;
- Bu ikki tarkibni taxrirlashni o‘chirib qo‘yish mumkin;
- GPO obyektining nasllilik xususiyatini blokirovka qilish mumkin;
- GPO obyektining nasllilik xususiyatini qat‘iylashtirish mumkin;
- GPO obyektini tadbqiq qilishni ACL ro‘yxati yordamida filtrlash mumkin

Ikkita guruh siyosati bilan berilgan parametrlar o‘rtasida konflikt paydo bo‘lishi mumkin, ya’ni, birinchi siyosatda bir parametr, ikkinchi siyosatda esa ikkinchi paramert berilishi mumkin bo‘ladi. Bunday xollarda GPO ga eng yaqin bo‘lgan siyosat tadbqiq qilinadi

### *1.3.2. Guruh siyosatining naslliligi*

Faraz qilaylik P1 siyosati bilan P3 siyosati SA siyosatiga bog‘langan, P1 siyosatida biror parametrni o‘zlashtirsak, lekin bu P1 siyosatida mavjud bo‘lmasa, P1 va P3 siyosatlari bog‘langan obyektga P1 dagi paramet tadbqiq qilinadi. Boshqa bir obyektga SA bi tadbqiq qilinsa, bu siyosatda hech qanday parametr o‘zgartirilmagan bo‘lsa ham P1 dagi siyosat tadbqiq qilinaveradi. Bu holat SA uchun P1 va P3 ga nisbatan nasllilik deb yuritiladi.

### *1.3.3. Siyosatning naslliligini bloklash*

Windows server tizimida guruh siyosatini bloklash mumkin. Masalan, agar IT guruhi va uning tarkibidagi barcha konteynerlar faqat IT sathi guruh siyosati bilan aniqlangan bo'lsa, IT konteyneri xususiyatidan Block Policy Inheritance (Siyosatning naslliligini bloklash) ga bayroqcha (galochka) o'rnatiladi. Bunda P1 va P3 siyosatlari IT ga tadbiiq qilinmaydi. Siyosatning naslliligini bloklash faqat bitta siyosat uchun tadbiiq qilinmaydi, chunki bitta siyosatda nasllilik mavjud bo'lmaydi.

Agar P1 siyosat P3 siyosat bilan nasllilik munosabatida bo'lsa, ya'ni P3 siyosati P1 siyosatining tarkibida bo'lsa, P3 dagi parametr P1 dagi parametrni bekor qiladi (buni yuqorida konflikt haqida aytib o'tgandik), lekin P1 ning xususiyatida No Override (bekor qilinmasin) ga bayroqchani qo'yish bu parametrni P1 siyosatidan olish kerakligini bildiradi.


### *1.3.4. Guruh siyosatini tadbiiq qilish mijoz tizimlari*

Windows server tizimlarining versiyalariga qarab, guruh siyosatining tadbiiq qilinish imkoniyatlarini keltirish mumkin. Agar server tizim Windows 2000 bo'lsa bu tizimda berilgan guruh siyosati Windows XP/2000 server tizimlariga tadbiiq qilish mumkin bo'ladi. Windows 2008 tizimi Windows 2003 server tizimining imkoniyatlarini o'z ichiga olib, Windows XP/Vista/7/2008 server tizimlari uchun tadbiiq qilinadi.

## II BOB. GURUH SIYOSATI KATEGORIYALARI

### 2.1. Kompyuter konfiguratsiyalarini sozlash

Lokal guruh siyosatini ishga yuklash uchun **gpedit.msc** dan foydalaniladi. Bu buyruqni ixtiyoriy buyruqlar satrida amalga oshirish mumkin. Lokal guruh siyosatini ishga yuklaganimizda «Редактор локальной групповой политики» muloqot oynasi hosil bo‘ladi (1-rasm).




1-rasm. Lokal guruh siyosati taxrir oynasi

Lokal guruh siyosati ikkiga bo‘linadi. Kompyuter konfiguratsiyasi va foydalanuvchi konfiguratsiyasi. Kompyuter konfiguratsiyasi barcha foydalanuvchilar uchun kiritiladigan lokal guruh siyosiy parametrlari hisoblanib, undagi amallar kompyuter tizimga kirib bo‘lmasidan bajariladi. Ya’ni foydalanuvchi hali o‘z profili bilan tizimga kirmasidan oldin bajariladi. Kompyuter konfiguratsiyasi uch qismdan iborat bo‘lib, ular: dasturlar konfiguratsiyasi (Конфигурация программ), Windows konfiguratsiyasi

(Конфигурация Windows), Administrativ shablon (Административные шаблоны).


**Dasturlar konfiguratsiyasi** dasturiy maxsulotlarni kiritish va ulardan foydalanish imtiyozlarini belgilash ishlarini amalga oshirish uchun kiritiladi. Bu qismda Windows operatsion tizimida ro'yxatdan o'tmagan amaliy va tizimli dasturiy vositalarni cheklash va ularga imtiyozlar belgilash imkoni mavjud. Hozirgi kunda amaliy dasturiy vositalar ko'plab yaratilmoqda. Ularning ba'zilaridan foydalanishga tizimda ruxsat berilmaydi, lekin Windows tizimi bu xolatlarni hisobga olmaydi. Shu sababli bu dasturiy maxsulotlarga avvaldan cheklovlar kiritilmagan.



2-rasm. Dastur konfiguratsiyasi bo'limiga dasturlarni ekport qilish.

**Windows konfiguratsiyasi** operatsion tizim parametrlarini kiritish uchun foydalaniladi. Bu guruh yordamida domen nomlariga ruxsat berish, avtomatik ishga yuklovchi ssenariylarni kiritish (ssenariy – bir yoki bir nechta dasturiy vositalarni tizimni yuklash yoki tizim ishini yakunlash vaqtida ishga

tushirish), havfsizlik parametrlari, guruh siyosati asosida xizmat sifatini belgilash (QoS – Quality of Service) kabi parametrlarni kiritish mumkin bo‘ladi. Kompyuter konfiguratsiyasidan foydalanilganda ko‘proq havfsizlik tomoniga e‘tibor qaratiladi. Havfsizlikni ta‘minlash maqsadida har bir foydalanuvchiga taalluqli bo‘lgan parametrlarni kiritish imkoni mavjud bo‘ladi. Windows konfiguratsiyasining havfsizlik bo‘limini sozlash uchun «Параметры безопасности» bo‘limiga kiriladi.



3-*rasm. Havfsizlik parametrlari oynasi*

Hozirgi kunda havfsizlikni ta‘minlashda birinchi o‘rinlarda foydalanuvchiga ko‘proq e‘tibor qaratiladi. Foydalanuvchilar uchun hafsizlikni ta‘minlash – ularning murakkab parollardan foydalanishini belgilash, parolni ma‘lum muddatlarda o‘zgartirib turish, parol uchun miniman uzunlik (belgilar soni)ni belgilash, parolni qaytuvchi shifrlash yordamida shifrlash va shu kabilar kiradi.

Endi yuqorida sanab o‘tilganlardan ba‘zilarini batafsil ko‘rib chiqamiz.

«Максимальный срок действия пароля» - parol amal qilishining maksimal

muxlatini

belgilash.

Bu

parametr

ochilganda


4-

rasmdagi

oyna

paydo bo‘ladi. Bu

oynadan parolning



4-rasm. Parolni maksimal amal qilish muhlati.

maksimal amal qilish muhlatini belgilaymiz. Bu muhlat tugaganda parolni zudlik bilan almashtirish talab qilinadi. Oldingi parol esa qayta qo‘yilishini ta’qiqlab qo‘yadi. Bu parametr bevosita parolning minimal amal qilish muhlati bilan bo‘g‘liq bo‘lib, uning qiymati parolning minimal amal qilish muhlatini qo‘yishdagi qiymatdan kichik bo‘lmasligi kerak. Agar parol qo‘yishning maksimal muhlati 999 bo‘lsa, u xolda minimal muhlat 1 dan 998 gacha bo‘lishi mumkin.


«Пароль должен отвечать требованиям сложности» - parol o‘rnatishda murakkablikka rioya qilish talabi. Bu parametr sukut xolati bo‘yicha ishchi stansiyalarda o‘chirilgan, serverlarda esa yoqilgan bo‘ladi. Parametr yoqilsa, u xolda foydalanuvchilar uchun parol kiritish quyidagi qoidalarga rioya qilgan xolda amalga oshirilishi talab etiladi:

- parol foydalanuvchi porfili nomidan iborat bo‘lmasligi yoki tarkibida foydalanuvchining to‘la nomi mavjud bo‘lmasligi lozim;
- olti belgidan kam bo‘lmasligi lozim
- quyidagi belgilar to‘plamidan kamida uchitasi qatnashishi lozim:

- ✓ Lotin bosh harflari (A-Z);
- ✓ Lotin kichik harflari (a-z);
- ✓ Raqamlar (0-9);
- ✓ Harf va raqamlardan tashqari belgilar (!,@,#,\$ va h.k).

Agar parollarning minimal va maksimal xolatlari uchun 0 qiymat berilsa u hech qanday muhlatga rioya qilmaydi.

«Политика IP-безопасности на “Локальный компьютер”» - Lokal kompyuterda IP-himoyasi siyosati. Bu parametr orqali lokal kompyuterda kompyuterlarni manzillashga asoslangan IP (Internet protkol) manzilini himoyasini ta'minlash uchun hizmat qiladi. Sukut xolatida hech qanday sozlash ishlari kiritilmagan bo'ladi. Yangi siyosat kiritish uchun parametr ustida sichqon o'ng tugmasi chertiladi va «Создать политику IP-безопасности...» tanlanadi (5-rasm). Keyingi qadamlarda kerakli parametrlarni o'rnatib, havfsizlik xolatlarini kiritish mumkin.



5-rasm. Lokal kompyuterning IP – himoyasi.

**Administrativ shablonda** Windows ning komponentlari, «Пуск» menyusi va vazifalar paneli, umumiy papkalar, boshqaruv paneli, ishchi stol, tarmoq, tizim parametrlarini sozlash ishlarini amalga oshirish mumkin.

Endi Administrativ shablonda mavjud parametrlarning bir nechtasini sanab o'tamiz.

**Компоненты Windows** qism kategoriyasi elementlari:

*Windows Media Center* – Windows Vista va undan yuqori versiyalarda mavjud bo'lib, Windows Media Center amaliy dasturiy vositasini ishga yuklanishini bekor qilish mumkin.

*Windows Messenger* – Windows XP va undan yuqori versiyadagi operatsion tizimlarda Windows Messenger amaliy dasturiy vositasini ishga yuklanishini bekor qilish yoki internet ulanganda avtomatik avtorizatsiyani bekor qilish mumkin

*Гаджеты рабочего стола* – ish stoli gajeti. Windows Vista va undan yuqori operatsion tizimlarda qo'llab-quvvatlanadi. Bu parametr orqali Ish stoli gajetini yuklashni bloklash, rasmiy imzosi bo'lmagan gajetlarni o'rnatish yoki ochishni chegaralash, foydalanuvchilar tomonidan o'rnatilgan gajetlarni o'chirish kabi ishlarni amalga oshirish mumkin.

*Диспетчер окон рабочего стола* – Ish stoli oynasi dispetcheri. Oyna ramkasi rangini qat'iy tayinlash, oyna animatsiyasini cheklash (ya'ni, animatsiyaga ruxsatni berkitish), oyna vizual effektlarini cheklash, Flip3D – 3D oyna vazifasini bekor qilish kabi ishlarni amalga oshirish mumkin.

*Домашняя группа* – uy guruhi, ya'ni tarmoqda uy guruhiga ulanishni ta'qiqlash mumkin.

*Звукозапись* – ovoz yozish dasturi bajarilishini ta'qiqlash mumkin.

*Политики автозапуска* – avtoyuklash siyosati. Autorun.inf faylida ko'rsatilgan yuklash fayliga avtomatik murojaatni taqiqlash mumkin. Bu parametr disk, disketa, flash tashuvchilar yoki ZIP qurilmalardagi dasturiy vositalarni avtomatik ishga tushirish xolatini belgilashda ishlatiladi. Windows XP ning ikkinchi servis paketigacha versiyalarida faqat kompakt disklarda yoqilgan xolatda bo'lgan. Hozirda ular barcha xotira qurilmalarida yoqilgan xolatda bo'ladi. Ko'pincha virus dasturlari autorun.inf ga o'z ma'lumotlarini joylashtirib, avtomatik ishga yuklashni amalga oshirishga harakat qiladi. Shu sababli bu parametrni o'rnatib, avtoyuklashni cheklash mumkin. Bu esa virusdan himoyalanihga yordam beradi.

*Сетевой проектор* – tarmoq proyektori. Tarmoq proyektorini uzish, tarmoq proyektori portini qat'iy belgilash mumkin.

*Центр обновления Windows* – Windowsni yangilash markazi. Bu parametr orqali Windows operatsion tizimini yangilash uchun kiritiladigan parametrlarni sozlash mumkin. Ko'p xollarda windows operatsion tizimini yangilash internetdan ko'plab megabayt trafik sarflanishiga olib keladi. Tizimdan foydalanuvchi uchun bu yoqmaydi. Bunday xollarda tizimni internet orqali yangilashni o'chirib qo'yishni xoxlaydi. Mazkur parametr orqali tizimni yangilashdan cheklash mumkin.

***Панель управления*** – qism kategoriyasi elementlari

*Учетные записи пользователей* – foydalanuvchi profillari. Применить изображение по умолчанию для учетной записи пользователя ко всем пользователям – bu parametr barcha foydalanuvchi uchun bitta tasvirni joylashtirish imkonini beradi.

*Язык и региональные стандарты* – til va regional standartlar. Bu parametrlar Windows operatsion tizimida ro'yxatdan o'tgan barcha foydalanuvchilar uchun til interfeysini chegaralash imkoniyatini beradi.

***Принтеры*** – printerlarni sozlash. Odatda tarmoq doirasida ishlovchi printerlarni sozlash uchun ishlatiladi

***Сеть*** – tarmoq parametrlarini sozlash. Tarmoqqa oid bo'lgan parametrlarni sozlashda foydalaniladi

***Система*** – тизимга оид параметрларни созлаш ишларини амалга ошириш мумкин.


***Все параметры*** – yuqorida sanab o'tilgan barcha parametrlarni o'z tarkibiga oladi. U orqali tizimning barcha parametrlarni filtrlagan xolad ko'rib chiqish imkoniyati mavjud.

## 2.2. Foydalanuvchi konfiguratsiyalarini sozlash

Foydalanuvchi konfiguratsiyalari ham kompyuter konfiguratsiyalari kabi uchta parametrdan iborat. Ular: Dasturlar konfiguratsiyasi (Конфигурация программ), Windows konfiguratsiyasi (Конфигурация Windows), Administrativ shablon (Административные шаблоны).

Dasturlar konfiguratsiyasi kompyuter konfiguratsiyasi kabi bajariladi. Windows konfiguratsiyasi esa kompyuter konfiguratsiyasidan farq qiladi:

*Сценарии* – kompyuter konfiguratsiyasida Автозагрузка va Завершение работы parametrlari mavjud. Foydalanuvchi konfiguratsiyasida esa Вход в систему va Выход из системы parametrlari bor.



6-rasm. Foydalanuvchi konfiguratsiyasining *Сценарии* parametri

Bu parametrlarning farqi shundaki, Автозагрузка tizim yuklanishi bilan ishga tushirilishi kerak bo'lgan dasturlarni ishga yuklaydi. Вход в систему parametri esa tizimga foydalanuvchi profili kirishni amalga

oshirgandagina yuklanuvchi dasturlarni ishga yuklaydi. Agar foydalanuvchi profili boshqa foydalanuvchi bilan ishga yuklansa, u xolda foydalanuvchi konfiguratsiyasida ko'rsatilgan dastur ishga yuklanmaydi. Завершение работы параметри kompyuter o'chirilganda ishga tushishi lozim bo'lgan amaliy dasturini ishga yuklaydi. Выход из системы esa foydalanuvchi o'z profili ishini yakunlaganida yuklanuvchi dasturni ishga tushiradi.


*Параметры безопасности* – foydalanuvchi konfiguratsiyasida faqat ochiq kalitlar siyosati parametrini taxirlash mumkin, kompyuter konfiguratsiyasida esa ko'plab parametrlarni kiritish mumkin bo'ladi.

*Административные шаблоны* – kompyuter konfiguratsiyasida barcha foydalanuvchilar uchun sozlash ishlari amalga oshirilsa, foydalanuvchi konfiguratsiyasida qo'shimcha parametrlar ham mavjud bo'ladi.

Bu qism parametrda kompyuter konfiguratsiyasidan tashqari qo'shimcha parametrlar quyidagi ishlarni amalga oshirish uchun hizmat qiladi.

***Меню «Пуск» и панель задач*** – bu parametr orqali «Пуск» menyusi va vazifalar panelini sozlash mumkin.

*Очищать журнал недавно открывавшихся документов при выходе* – bu parametr Windows 2000 va undan yuqori tizimlarda ishlaydi. Bizga ma'lumki, Windows operatsion tizimida biror hujjat yuklansa, uning yorlig'i «Недавные документы» menyu bo'limida hosil bo'ladi (7-a rasm).




7-рasm. «Недавние документы» menyusi tarkibi.

Agar yuqorida ko'rsatilgan parametr faollashtirilsa, u holda foydalanuvchi o'z profilidan chiqqandan so'ng navbatdagi kirishda bu menyuyu avtomatik ravishda tozalanadi (7-b rasm).

*Очистка списка недавно использовавшихся программ для новых пользователей* – bu parametr Windows Vista va undan yuqori bo'lgan operatsion tizimlarga oid. Bir necha vaqt oldin ishlatilgan dasturiy vositalarning yorliqlari saqlanib qoladi va «Пуск» menyusida aks etadi (8-a rasm). Mazkur parametr faollashtirilsa, u holda «Пуск» menyusi foydalanuvchi profili ishini yakunlab tizimga chiqqandan so'ng tozalanadi va navbatdagi kirishda «Пуск» menyusida oldin foydalanilgan dasturiy vositalarning yorliqlari qolmaydi (8-b rasm).

*Добавить пункт выхода из системы в главное меню* – bosh menyuga «ВЫХОД ИЗ СИСТЕМЫ» punktini qo'shish. Bu parametr Windows operatsion tizimining dastlabki versiyalariga tegishli bo'lib, Windows XP/2000/2003/Vista/2008 larda tadbiq qilinadi.



a)


b)

8-rasm. «Пуск» menyusi

*Закрепить панель задач* – vazifalar panelini maxkamlash. Windows XP yoki undan yuqori bo'lgan operatsion tizimlarda qo'llab quvvatlanadi. Bu parametr faollashtirilganda tizimning vazifalar paneli maxkamlangan holatga o'tadi va uning pozitsiyasini o'zgartirish imkoni cheklanadi

*Добавить флажок «Запустить в отдельной области памяти»* в окне команды «Выполнить» - «ВЫПОЛНИТЬ» buyruqlar oynasida «ЗАПУСТИТЬ В ОТДЕЛЬНОЙ ОБЛАСТИ ПАМЯТИ» bayroq belgisini qo'shish. Bu parametr 16-razryadli dasturiy vositalarni virtual mashinaningd alohida protsessida ishga yuklash imkonini berish uchun kiritiladi. Sukut xolatida bu parametr mavjud bo'lmaydi (9-a rasm).

*Удалить всплывающие подсказки для элементов главного меню*




a)

b)

9-рasm. Выполнить buyruq satri oynasi

Удалить контекстные меню и меню перетаскивания для элементов меню «Пуск» - bosh menyudan kontekstli menyuni va uning parametrlarini olib tashlash mumkin


Удалить команд «Завершение работы», «Перезагрузки», «Сон», «Гибернация» и Запретить доступ к ним – ishni yakunlash, qayta ishga yuklash, kutish va gibernatsiya (10-a rasm) buyruqlarini menyudan olib tashlash va ularning faoliyatini cheklash mumkin. Bunda yuqorida keltirilgan punktlar ishni yakunlash oynasida ko'rinmaydi (10-b rasm). Shuningdek ularnin faoliyati to'xtatiladi va foydalanuvchi tomonida ularning faoliyatini ishga yuklashga urinish bo'lganida Administratorga murojaat qilish ketrakligi haqida ogohlantirish beriladi (11-rasm)



a)

b)

10-рasm. Ishni yakunlash menyusi



11-rasm. Cheklash haqidagi ogohlantirish.

*Скрыть общие группы программ в меню «Пуск»* - bosh menyudan umumiy dasturlar guruhini yashirish mumkin

*Удалить меню избранные из главного меню* – bosh menyudan *избранные* menyusini olib tashlash mumkin

*Удалить ссылку «Поиск» в меню Пуск* – bosh menyudan qidirish murojaat oynasini olib tashlash mumkin

*Удалить ссылку часто используемых программ в меню Пуск* – tez-tez foydalanib turiladigan dasturlar ro'yxatini bosh menyuda olib tashlash mumkin

*Удалить ссылку «Игры» в меню Пуск* – bosh menyuda o'yinlarga murojaat oynasini olib tashlash mumkin

*Удалить справку из меню Пуск* – bosh menyudan foydalanuvchiga ma'lumot berish oynasi buyrug'ini olib tashlash mumkin

*Отключить слежение за действиями пользователя* – ishni yakunlashda foydalanuvchining nima maqsadda ishni yakunlayotganligini ta'kidlash oynasini o'chirib qo'yish mumkin. Bu odatda server tizimlarida yoqilgan xolatda bo'ladi. Ishchi stansiyalarda esa o'chirilgan xolatda bo'ladi.

*Удалить список всех программ в меню Пуск* – bosh menyudan barcha dasturlar ro'yxatini olib tashlash mumkin. Bu parametr orqali bosh menyudagi barcha dasturlarni qamrab oluvchi buyruq yo'qotiladi

*Удалить сетевое подключение из меню Пуск – bosh menyudan tarmoqqa bog'lanish menyusini okib tashlash mumkin*

*Удалить список программ в закрепленных в меню Пуск – bosh menyudan foydalanuvchilar tomonidan bosh menyuga maxkamlangan dasturlarning yorliqlarini olib tashlash mumkin*

*Не хранить сведения о недавно открывавшихся документах – bosh menyuda oldin taxrirlash uchun ochilgan hujjatlarning ro'yhatini saqlash parametrini bekor qilishi mumkin*

*Удалить меню недавно открывавшихся документах – oldin ochilgan hujjatlarni aks ettiruvchi menyuni bosh menyudan olib tashlash mumkin*

*Удалить команды Выполнить из меню Пуск – bosh menyudan buyruqlar satrini olib tashlash mumkin*

*Удалить ссылку «Программы по умолчанию» из меню Пуск – bosh menyudan «Программы по умолчанию» murojaat buyrug'ini olib tashlash mumkin*

*Удалить значок «Документы» из меню Пуск – bosh menyudan hujjatlar papkasiga bevosita kirish buyrug'ini olib tashlash mumkin*

*Удалить значок «Музыка» из меню Пуск – bosh menyudan musiqalar joylashgan papkaga bevosita kirish buyrug'ini olib tashlash mumkin*

*Удалить значок «Сеть» из меню Пуск - bosh menyudan tarmoqqa bog'lanish buyrug'ini olib tashlash mumkin*

*Удалить значок «Изображения» из меню Пуск* - bosh menyudan rasmlar va tasvirlar joylashgan papkaga bevosita kirish buyrug'ini olib tashlash mumkin

*Запретить поиска файлов* – fayllarni qidirishni taqiqlash mumkin

*Запретить поиска программ и элементов Панел управления* – boshqaruv paneli elementlari va dasturlarni qidirishni taqiqlab qo'yish mumkin

*Отключить папку программ в меню настроек* – sozlash menyusidan dasturlar papkasini o'chirib qo'yish mumkin

*Запретить изменение параметров панели задач и меню Пуск* – bosh menyu va vazifalar paneli parametrlarini o'zgartishni cheklash yoki taqiqlash mumkin

*Удалить ссылку «Загрузки» из меню Пуск* – bosh menyudan «Загрузки» murojaat buyrug'ini olib tashlash mumkin

*Удалить ссылку «Домашняя группа» из меню Пуск* – bosh menyudan «Домашняя группа» murojaat buyrug'ini olib tashlash mumkin

*Удалить ссылку «ТВ-запись» из меню Пуск* - bosh menyudan «ТВ-запись» murojaat buyrug'ini olib tashlash mumkin

*Удалить папку пользователя из меню Пуск* - bosh menyudan foydalanuvchi papkasi uchun murojaat buyrug'ini olib tashlash mumkin

*Удалить ссылку «Видео» из меню Пуск* - bosh menyudan «Видео» murojaat buyrug'ini olib tashlash mumkin

*Форсировать классическое меню «Пуск»* - bosh menyuni klassik menyu bilan almashtirish mumkin. Bu parametr Windows XP tizimlariga xos bo'lib, Windows 7 va undan yuqori bo'lgan tizimlarda amal qilmaydi.

*Удалить часы из системной области уведомлений* – tizim sohasi deb yuritiluvchi, oynanig o'ng quyi burchagida joylashgan sohadan vaqtni ko'rsatib turuvchi indikatorni olib tashlash mumkin.

*Запретить группировку элементов панели задач* – vazifalar panelidan guruhlash imkoniyatini olib tashlash mumkin

*Не отображать панели инструментов в панели задач* – vazifalar panelidan instrumentlar panelini olib tashlash mumkin

*Запретит доступ к контекстному меню в панели задач* – vazifalar panelining kontekstli menyusi kirishni ta'qiqlab qo'yish mumkin

*Скрыт области уведомлений* – tizim sohasini yashirib qo'yish mumkin

*Удалить ссылку на папку пользователя из меню «Пуск»* - bosh menyudan foydalanuvchi papkasi uchun murojaat buyrug'ini olib tashlash mumkin

*Удаляет ссылку на Web сайт Центра обновления Windows и запрещает доступ к нему* – Windowsni yangilash markazi web sahifasini olib tashlash va unga kirishni ta'qiqlab qo'yish mumkin

*Изменить действие кнопки питания меню Пуск* – bosh menyuda kompyuterni ishga yuklash uchun moslashtirilgan tugmaning vazifasini o'zgartirish mumkin

*Добавить команду «Выполнить» в меню Пуск – bosh menyuga «Выполнить» buyrug'ini qo'shish mumkin*


*Удалить завершение сеанса в меню Пуск – bosh menyudan foydalanuvchi profili ishini yakunlash buyrug'ini olib tashlash mumkin*

*Удалить значок центра поддержки – qo'llab quvvatlash markazi belgisini olib tashlash mumkin*

*Скрыть значок сети – tarmoq belgisini ko'rsatuvchi indikatorni tizim sohasidan olib tashlash mumkin*

*Скрыть индикатор батареи – batareya xolatini ko'rsatuvchi indikatorni tizim sohasidan olib tashlash mumkin*

*Скрыть значок регулятора громкости – tovush regulyatori xolatini ko'rsatuvchi indikatorni tizim sohasidan olib tashlash mumkin*



*Отключить всплывающие уведомления объявлений компонентов – komponentlar haqida habar beruvchi izoh oynasini o'chirib qo'yish mumkin*

*Запретить закрепление элементов в списках переходов – o'tish ro'yxatidagi elementlarni mahkamlash xolatini kta'qiqlash mumkin*

*Запретить закрепление программ в панели задач – vazifalar paneliga dastur oynasining ishga tushirish yor'lig'ini mahkamlash xolatini ta'qiqlash mumkin*

*Отключить автоматическое отображение значков уведомлений в панели задач* – vazifalar panelida belgilarning avtomatik tarzda ko'rsatilishini o'chirib qo'yish mumkin

*Блокировать все параметры панели задач* – vazifalar panelidagi barcha parametrlarni bloklab qo'yish mumkin

*Отключить всплывающие напоминание* – suzuvchi oynada aks etuvchi eslatmalar chiqishini bekor qilish mumkin

*Удалить закрепленные программы из панели задач* – vazifalar paneliga mahkamlangan barcha dasturlarning yorliqlarini o'chirib qo'yish mumkin

*Запретить перемещение панели задач в другое положение экрана* – vazifalar panelini oynanig boshqa sohasiga o'tkazish imkoniyatini chaklab qo'yish mumkin

*Запретить изменение размера панели задач* – vazifalar paneli o'lchamini o'zgartirishni ta'qiqlab qo'yish mumkin

*Отключить эскизы панели задач* – vazifalar panelida dasturlar eskizini hosil qilish funksiyasini bekor qilish mumkin

**Панель управления** - bu parametr orqali Boshqaruv panelini sozlash mumkin.

**Персонализация** – bu parammetr ichki parametrlarga ega

*Запретить изменения цветовой схемы* – rang sxemalarini o'zgartrishni ta'qiqlab qo'yish mumkin

*Запретить изменения темы* – tizimda mavjud temalardan foydalanish va ularni o'zgartirishni ta'qiqlab qo'yish mumkin

*Запретить изменения стилей оформления окон и кнопок* – tugma va oynalar oformleniyasini o'zgartirishni ta'qiqlab qo'yish mumkin

*Включить заставку* – zastavkani belgilash mumkin. Bunda foydalanuvchi boshqa zastavkani o'rnata olmaydi

*Запретить выбор размера шрифта для стиля оформлений* – oformleniya uchun shrift o'lchamini o'zgartirishni ta'qiqlab qo'yish mumkin

*Запретить изменения цвета и оформление окон* – oyna rangi va oformleniyasini o'zgartirishni ta'qiqlab qo'yish mumkin

*Запретить изменения фона рабочего стола* – fon rasmini o'zgartirishni ta'qiqlab qo'yish mumkin

*Запретить изменения значков рабочего стола* – ish stoli belgilarini o'zgartirishni ta'qiqlab qo'yish mumkin. Bunda ish stoli elementlariga Kompyuter, Foydalanuvchi papkalari, Korzina, Tarmoq elementlari kiradi

*Запретить изменения указателя мыши* – sichqon ko'rsatkichini o'zgartirishni ta'qiqlab qo'yish mumkin

*Запретить изменения заставки* – zastavkani o'zgartirish imkoniyatini ta'qiqlab qo'yish mumkin

*Запретить изменения звуков* – ovoz sxemalarini o'zgartirishni ta'qiqlab qo'yish mumkin

*Парольная защита заставки* – zastavka ishga yuklanganda foydalanuvchi tomonida kirish amalga oshirilishi uchun parol talab qilinishini belgilash mumkin

*Таймаут заставки* – zastavka ishga yuklangandan so'ng qancha soniya kutishini belgilash mumkin

*Применить указанную заставку* – ko'rsatilgan zastavka faylini ijrosini ta'minlash mumkin

*Загрузить указанную тему* – ko'rsatilgan tema faylini yuklash mumkin. Bunda fayl mstheme kengaytmasi bilan beriladi

*Применить конкретный файл стиля оформления или классический стил Windows* – Windowsning klassik stili yoki oformleniyasi uchun konkret faylni ishga yuklash mumkin

**Принтеры** – bu parammetr ichki parametrlarga ega

*Запретить добавления принтеров* – printerlarni o'rnatishni taqiqlash imkoniyatini joriy etish mumkin


*Запретить удаления принтеров* – oldin o'rnatilgan printerlarni o'chirib yuborishni ta'qiqlash mumkin

**Рабочий стол** – bu parammetr ichki parametrlarga ega

*Active Desktop* – faol ish stoli elementlarini tashkil qilish imkoniyatini yaratadi uning ichki parametrlari quyidagilar

*Запретить изменения* – faol ish stolini o'zgartirishni ta'qiqlash mumkin

*Фоновые рисунки рабочего стола* – ish stoliga biriktirilgan fon rasmini o'zgartirishni ta'qiqlash mumkin



13-rasm.


*Разрешить только точечные рисунки для фонового рисунка – ish stoli uchun faqat nuqtali rasmlar (bmp) dan foydalanishga ruxsat berish mumkin*

*Скрыть значок «Сеть» на рабочем столе – ish stolidan «Сеть» belgisini olib tashlash mumkin*

*Скрыть значок «Internet Explorer» на рабочем столе - – ish stolidan «Internet Explorer » belgisini olib tashlash mumkin*

*Скрыть и отключить все элементы рабочего стола - – ish stolidan barcha belgilarni olib tashlash va ularning faoliyatini to'xtatish mumkin*

*Удалить значок Компьютер с рабочего стола – ish stolidan «Компьютер» belgisini olib tashlash mumkin*



14-rasm.


*Удалить значок Корзина с рабочего стола – ish stolidan «Корзина» belgisini olib tashlash mumkin*

*Удалить значок Мои документы с рабочего стола – ish stolidan «Мои документы» belgisini olib tashlash mumkin*

*Удалить пункт «Свойства» из контекстного меню значка «Документы» - «Документы» belgisining kontekstli menyusidan «Свойства» punktini olib tashlash mumkin*

*Удалить пункт «Свойства» из контекстного меню значка «Компьютер» - «Компьютер» belgisining kontekstli menyusidan «Свойства» punktini olib tashlash mumkin*

Удалить пункт «Свойства» из контекстного меню компонента «Корзина» - «Корзина» belgisining kontekstli menyusidan «Свойства» punktini olib tashlash mumkin



Состояние	Состояние
Active Desktop	
Active Directory	
Запретить пользователям вручную перенаправлять папки профилей.	Не задана
Скрыть и отключить все элементы рабочего стола	Не задана
Удалить мастер очистки рабочего стола	Не задана
Скрыть значок Internet Explorer на рабочем столе	Не задана
Удалить значок «Компьютер» с рабочего стола	Включена
Удалить значок «Мои документы» с рабочего стола	Не задана
Скрыть значок «Сеть» на рабочем столе	Не задана
<b>Удалить пункт «Свойства» из контекстного меню значка «Компьютер»</b>	<b>Не задана</b>
Удалить пункт «Свойства» из контекстного меню значка «Документы»	Не задана
Не добавлять общие папки, из которых открыты документы в «Сеть»	Не задана
Удалить значок «Корзина» с рабочего стола	Не задана
Удалить пункт «Свойства» из контекстного меню компонента «Корзи...	Не задана
Не сохранять параметры при выходе	Не задана
Отключить сворачивание окна Aero Shake жестом мышью	Не задана
Запретить добавление, перетаскивание и закрытие панелей инструме...	Не задана

15-rasm.

**Система** – bu parammetr ichki parametrlarga ega

*Выполняют только указанные приложение Windows – faqat Windows tizimining ko'rsatilgan ilova dasturlarini bajarish imkonini belgilash mumkin*


*Запретить доступ к средствам редактирование реестра – reestrni taxrirlash imkoniyatini ta'qiqlash mumkin*

*Запретить использование командной строки – buyruqlar satridan foydalanishni bekor qilish mumkin*

*Настраиваемый интерфейс пользователя – foydalanuvchi tomonidan sozlangan interfeysdan foydalanish mumkin*

*Не запускать указанные приложения Windows – ko'rsatilgan ilova dasturlari bajarilishini ta'qiqlash mumkin*

***Все параметры*** – bu punkt barcha parametrlarni o'z ichiga oladi



16-rasm.

**III BOB. «GURUH SIYOSATI» MAVZUSINI O‘TISHDA  
NOAN’ANA VIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN  
FOYDALANISH METODLARI**

**3.1. «Lokal guruh siyosati» mavzusini o‘tishda innovatsion  
texnologiyalardan foydalanish**

«Lokal guruh siyosati» mavzusini o‘rganishda innovatsion texnologiyalardan foydalanib talaba va o‘quvchiga ma’lumot yetkazish eng samarali usullardan biri ekanligini yaxshi bilamiz. Bu mavzuni tushuntirish uchun «Kompyuter va uning qurilmalari» qismini qamrab oluvchi dars ishlanmasini ko‘rib chiqamiz.

**Kompyuter va uning qurilmalari mavzusining  
texnologik xaritasi**

<b>Darsning maqsad va vazifalari:</b>	
<p><b>Maqsadlar:</b></p> <p><b>Ta’limiy:</b> Kompyuter asosiy va qo‘shimcha qurilmalari vazifalari va imkoniyatlarini o‘rgatish. Monitoring, tizimli blokning, klaviaturaning va sichqonchaning vazifasini o‘rgatish.</p> <p><b>Tarbiyaviy:</b> Kompyuterdan foydalanish davr talabi va barcha talabalar kompyuter imkoniyatlaridan foydalanishni bilishlari kerakligini yetkazish.</p> <p><b>Rivojlantiruvchi:</b> Talabalarning ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda kompyuterdan foydalanish kerakligini va uning afzalliklari va o‘ziga xos qulayliklarini anglashlariga yordam berish.</p>	<p><b>Vazifalar:</b></p> <p><b>Ta’limiy savol:</b> Kompyuterning asosiy va qo‘shimcha qurilmalari vazifalari va imkoniyatlari nimaladan iborat?</p> <p>Doimiy xotira, protsessor, kuler, platalar, vinchester, fleshkaning vazifasi nimadan iborat?</p> <p><b>Tarbiyaviy savol:</b> Kompyuterdan foydalanish jamiyat rivojiga ta’sir etadimi? Ijobiy ta’sir etsa uni qanday tasavvur qilasiz?</p> <p><b>Rivojlantiruvchi savol:</b> Mashg‘ulot olib borish jarayoningizda kompyuterdan foydalanasizmi? Kompyuterdan foydalanishning afzal va murakkab tomonlari nimada?</p>
<b>Kutilayotgan natijalar:</b>	
<p><b>Dars yakunida tinglovchi biladi (bilim):</b> Kompyuter asosiy va</p>	<p><b>Qaysi savollar beriladi:</b> Kompyuter asosiy va qo‘shimcha</p>

qo‘shimcha qurilmalari vazifalari va imkoniyatlarini o‘rganadi. Monitor, tizimli blok, modem, klaviatura, printer, plotter, videokamera, kolonka, djoystik va sichqonchanning vazifasini o‘rganadi.	qurilmalari qanday dasturlar yordami bilan ishga tushiriladi? Ma‘lumotlarni kiritish va xotirada saqlash uchun qaysi qurilmalardan foydalaniladi?		
<b>Dars yakunida tinglovchi tushunadi (ko‘nikma):</b> Kompyuter asosiy va qo‘shimcha qurilmalarida ishlash, ma‘lumotni xotiraga olish va chop qilish bo‘yicha amaliy ko‘nikmaga ega bo‘ladi.	<b>Qaysi vazifalar beriladi:</b> Kompyuter asosiy va qo‘shimcha qurilmalarini o‘zaro bog‘lang, lotin va kirill shriftlarida ma‘lumot kiritib monitorda rasmiylashtiring va xotiraga joylang.		
<b>Dars yakunida tinglovchi bajara oladi (malaka):</b> Kompyuter asosiy va qo‘shimcha qurilmalaridan foydalanib ishlay oladi.	<b>Qanday topshiriqlar beriladi:</b> Kompyuter asosiy va qo‘shimcha qurilmalari yana qanday imkoniyatlarga egaligini o‘rganing.		
<b>Dars jarayoni va uning bosqichlari:</b>			
<b>Ishning nomi</b>	<b>Bajariladigan ish mazmuni</b>	<b>Metod</b>	<b>Vaqt</b>
<b>1-bosqich:</b> <b>Tashkiliy qism.</b>	Davomatni aniqlash.		5 minut
<b>2-bosqich:</b> <b>Refleksiya.</b> <b>Ehtiyojlarni aniqlash</b>	Mavzu bo‘yicha savol-javob orqali tinglovchilarning ushbu mavzuni qabul qilishga tayyorligi va ruxiy xolati aniqlanadi.	Interaktiv, ko‘rgazmali material	5 minut
<b>3-bosqich:</b> <b>Amaliy mashg‘ulotlar</b>	Kompyuter asosiy va qo‘shimcha qurilmalari vazifasi bilan tanishish.	matn bilan ishlash	15* minut
<b>4-bosqich:</b> <b>Amaliy mashg‘ulotlar</b>	Kompyuter asosiy va qo‘shimcha qurilmalarida ishlash amaliyotini o‘zlashtirish	Interaktiv (amaliy laboratoriya)	15 minut
<b>5-bosqich:</b> <b>Amaliy mashg‘ulotlar</b>	Kompyuter asosiy va qo‘shimcha qurilmalarida ishlash bo‘yicha tarqatma material asosida mashqlar bajarish	Amaliy (mustaqil ish)	30 minut
<b>6-bosqich:</b>	Xulosa (savol–javob, fikr-	Interaktiv	10

<b>Mustahkamlash</b>	mulohazalar va takliflar)	(jamoaviy)	minut
----------------------	---------------------------	------------	-------

### **Mashg‘ulotning borish bosqichlari**

**1 bosqich:** Davomatni aniqlash

**2 bosqich:** Savol – javob yordamida tinglovchilarning kompyuter to‘g‘risidagi tushuncha va bilimlari darajasi aniklanadi.

**3 bosqich:** Kurs tinglovchilari kichik guruxlarga bo‘linadi. har bir guruh a‘zosiga tartib bo‘yicha raqam beriladi. (Masalan birinchi ishtirokchi, ikkinchi ishtirokchi...). har bir guruxga «Kompyuter asosiy va qo‘shimcha qurilmalari» xaqida matnlar tarqatiladi. Guruxlardagi vazifalar bir birini takrorlamaydi. Bu mashg‘ulotda bumerang texnologiyasidan foydalaniladi.

**4 bosqich:** Tinglovchilar yana qayta guruxlarga bo‘linadi. (Avvalgi bosqichdagi guruxlarning birinchi ishtirokchilari 1 gurux, ikkinchi ishtirokchilari 2 gurux...). Xar bir guruxga «Kompyuter asosiy va qo‘shimcha qurilmalari vazifalari va imkoniyatlarini aniklash» vazifasi beriladi. Bu vazifani bajarish jarayonida xar bir gurux ishtirokchisi birinchi bosqichda egallagan bilimlarini ikkinchi gurux ishtirokchilariga tushuntiradi. Topshiriqni aloxida kompyuterlarda bajaradilar.

**5 bosqich:** Tinglovchilar bu bosqichda yakka tartibda ishlaydi. Xar bir tinglovchi Kompyuter asosiy va qo‘shimcha qurilmalarida tarqatma material asosida mashqlar bajaradi.

**6 bosqich:** Tinglovchilar bir birlariga mashg‘ulotda egallagan bilimlari asosida Kompyuter asosiy va qo‘shimcha qurilmalari xaqida savollar beradilar. O‘z o‘rnida o‘qituvchi ham savollar va tavsiyalar berib dars yakunlanadi.

**Mavzu bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar.**

Kompyuter ta'minoti va uning turlari. Kompyuterning apparat ta'minoti. Kompyuterning asosiy qurilmalari (Monitor, klaviatura, tizimli blok, sichkoncha) va ularning ishlash prinsiplari. Kompyuter qurilmalari va uning vazifalari. Kompyuterning qo'shimcha qurilmalari (skaner, pinter, plotter, videoproyektor va ekran, videokamera, modem, multimedia vositalari, axborot tashuvchi vositalar va ularning turlari).

Kompyuterga ma'lumotlarni saqlash usullari. Axborot o'lchov birliklari. Kompyuter qurilmalari orasidagi bog'liqlik. Kompyuterning dasturiy ta'minoti. Dasturiy ta'minotning turlari. Operatsion tizim va uning ishlash imkoniyatlari. Windows operatsion tizimning grafik interfeysi – ish stoli va uning asosiy elementlari. Oynalar bilan ishlash. Windowsda ishni yakunlash tartibi. Sichqoncha va klaviaturada bajariladigan amallar. Windowsda yangi papka yaratish. Ob'yekt nomini o'zgartirish. Ob'yektni o'chirish usullari. O'chirilgan ob'yektlarni qayta tiklash. Fayl va papkalarni saralash va qidirish. O'rnatilgan dasturni ishga tushirish. Fayl tushunchasi va ularning turlari. Fayllarni arxivlash. Arxivator dasturlari bilan ishlash. Arxivlangan fayllarni ishga tushirish. Fayllar ustida bajariladigan amallar: fayllarni yaratish; fayllarni nusxalash; fayllarni o'zgartirish; fayllarni uzatish; fayllarni o'chirish; fayllarni konvertatsiya qilish.

### **Kompyuter va uning qurilmalari ( 2 soat, amaliy)**

#### **Asosiy savollar:**

1. Kompyuterlarning yaratilish tarixi va ularning tuzilishi.
2. Kompyuterning asosiy qurilmalari va ularning vazifasi.
3. Kompyuterning qo'shimcha qurilmalari va ularning vazifasi.

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:** shaxsiy kompyuter, IBM PC, sistema bloki(tizimli qism), monitor, klaviatura, printer, sichqoncha, skaner, plotter, modem, strimmer va boshqalar.

#### **Mavzuga oid asosiy muammolar:**

1. Shaxsiy kompyuterlarni ishlab chiqish 1981 yildan boshlanadi deb fikr yuritiladi. Siz ushbu fikrga qo'shilasizmi yoki qo'shilmaysizmi? Sizningcha bu sanani qanday o'zgartirish mumkin va ular nima bilan bog'liq. Javobingizni izohlang.
2. Shaxsiy kompyuterlar protsessor, monitor va klaviaturalardan iborat asosiy qurilmalardan tashkil topadi deb e'tirof etiladi. Bu aytilgan fikrni to'g'ri deb hisoblaysizmi yoki yo'qmi. Javobingizni izohlab bering.
3. Shaxsiy kompyuterlarga qo'shimcha qurilmalar faqat uning imkoniyatlarini kengaytiradi degan fikr ilgari suriladi. Siz ushbu fikrga qanday qaraysiz? Agar sizda boshqa fikr bo'lsa, javobingizni izohlang.

### **Nazariy qism:**

**1-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi:** Talabalarni shaxsiy kompyuterlarning hozirgi vaqtgacha bo'lgan tarixi va tuzilishi haqida ma'lumot berish.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

1. Shaxsiy kompyuterlarning tarixini so'zlab bera oladi.
2. Shaxsiy kompyuterlarning tuzilishini izohlay oladi.

### **1-asosiy savolning bayoni:**

Insonlar o'zining hayoti davomida qadim zamonlardan boshlab, hisoblash ishlarini olib borishgan va bu hisoblash ishlarini ma'lum texnik vositalar orqali yengillashtirishga harakat qilishgan.

XVII asrda logarifmlar kashf etildi va shundan keyin yangi hisoblash asbobi – logarifmik lineyka yaratildi. Shu vaqtda Shikkard, Paskal va Leybnitslarning hisoblash mashinalari yaratildi. Fransuz olimi Blez Paskal tomonidan 1642 yilda yaratilgan jamlovchi mexanik mashinasi birinchi hisoblash mashinasi deb hisoblanadi. Ayni shu vaqtda Shtutgart shahri arxivida professor V. Shikkard 1623 yilda kashf etgan hisoblash mashinasining chizmasi topilgan. Bu tor doiradagi kishilarga ma'lum bo'lgani uchun birinchi hisoblash mashina deb e'tirof etilmagan. 1673 yilga kelib yana bir hisoblash mashinasi nemis matematik olimi G.V.Leybnits tomonidan

kashf qilindi. Bu mashina to'rtala (qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish) arifmetik amallarni bajarar edi. Taniqli ingliz olimi Ch.Bebbij tomonidan yaratilgan mexanik arifmometr XIX asrning yana bir kashfiyoti bo'ldi. Bu mashina murakkab masalalarni yechadigan matematik mashinalarning paydo bo'lishiga asos soldi. XX asrning 30-40 yillarida EHM larning yaratilishiga zamin tayyorlandi. ABISh ning Pensilvaniya universiteti olimlari J. Mouchli va J. Presner Ekkert loyihasi asosida 1942 yilda «ENIAK» deb nomlangan birinchi EHMni yaratishdi. Bu tarixda eng katta EHM bo'lib, og'irligi 30 tonnani tashkil qilgan, 150 kvadrat metr joyni egallagan va 18 ming vakuumli lampalar ishlatilgan. Bu EHM ballistik jadvallarni hisoblashda, atom energetikasi va koinot hisob – kitoblari uchun qo'llanilgan. Bu mashinaning tuzilishini tahlil qilish asosida amerikalik matematik Fon Neyman EHM yasashning asosiy tamoyillarini, jumladan ikkilik sanoq sistemasidan foydalanish va dasturni joriy xotirada saqlash usullari g'oyasini ilgari surdi.

EHM tuzilishi qanday bo'lishini 1945 yilda mashhur matematik Jon fon Neyman asoslab bergan va uning ko'rsatmasi ya'ni fon Neyman tamoyili bo'yicha EHM(kompyuter)lar tarkib topadi va ishlaydi.

Umumiy holda kompyuterlar uch qismdan tashkil topadi:

1. Protsessor – ma'lumotlarni qayta ishlovchi qurilma.
2. Xotira qurilmasi - ma'lumotlarni saqlovchi qurilma.
3. Kiritish – chiqarish qurilmalari – ma'lumotlarni kompyuterga kiritish va chiqarish ishlarini bajaruvchi qurilmalar.


Shaxsiy kompyuterlar ishlab chiqarilishi kichik hajmli ixcham kompyuterlar yaratilishi katta EHM larga bo'lgan talabning kamayishiga olib keldi. Shaxsiy kompyuter deyilishiga sabab bir kishi boshqarishi mumkinligidir. Katta EHMlar juda ulkan bo'lgani uchun boshqarishga bir necha kishi jalb qilingan.

ShEHM larning yaratilishiga 1947 yilda U.Shokli, J.Bardin, U.Bretteyn tomonidan «Bell» kompaniyasida yaratilgan tranzistorlar asos bo'ldi. 1969 yilda Intel firmasi muhim ixtiro kashf qilib, mikroprotsessorlarni

kichik hajmli ko‘rinishga olib keldi. 1981 yilga kelib, shu mikroprotssorlarda ishlaydigan zamonaviy shaxsiy kompyuterni AQSh ning IBM (International Business Mashines Corpation) firmasi ishlab chiqara boshladi va u IBM PC kompyuteri deb atala boshladi.

Shaxsiy kompyuter (ShEHM) larning IBM PC AT 286, AT 386, 486 SX, 486 DX, 586, 686 hamda Pentium, Pentium I, II,III va IV turlari mavjud. Bu kompyuterlarning barchasi umumiy tuzilishga ega, ishlash jarayonlari bir xil, ular faqatgina ishlash tezligi va xotirasining hajmi katta - kichikligi bilan farq qiladi.

Kompyuterlar asosan quyidagi qismlardan tashkil topadi: Tizimli blok; Monitor; Klaviatura; Sichqoncha;Qo‘shimcha qurilmalar.



Kompyuterlarni xotirasining hajmi, amallar bajarish tezligi, ma'lumotlarning razryad to'rida(yacheykalarda) tasvirlanishiga qarab besh guruhga bo'lish mumkin:

- super kompyuterlar(Super Computer);
- katta kompyuterlar (Manframe Computer);
- mini kompyuterlar (Minicomputer);
- shaxsiy kompyuterlar (PC – Personal Computer);
- boloknot (notebook) kompyuterlar.

Super kompyuterlar amal bajarish tezligi va xotira hajmining kengligi eng yuqori bo'lgan kompyuterlardir. Bu kompyuterlar bir sekundiga 10 trilliardlab amal bajaradi. Hozirda bu kabi kompyuterlardan AQSh va

Yaponiyada foydalanilmoqda. Misol tariqasida 9472 protsessorli Intel ASCII Red va 128 protsessorli SGI ASCII Blue kompyuterlarini keltirish mumkin.

Hozirgi vaqtda chiqarilayotgan kompyuterlarning deyarli barchasi foydalanuvchilar tomonidan alohida foydalanishga mo'ljallangan bo'lib, shaxsiy kompyuter deb yuritiladi.

Ma'lumki kompyuterlar axborotlarni qabul qilish va qayta ishlashda sonli kodlashtirishdan foydalanadi. Chunki, axborotlar kompyuterni tashkil qilgan elektrik sxemalarda elektr toki borligi yoki yo'qligiga qarab hosil qilinadi. Sxemalarda tok bor bo'lsa – «1», tok yo'q bo'lsa «0» deb qabul qilinib axborotlar kodlashtiriladi. kompyuterda axborotlar 1 va 0 lar orqali hosil qilinib axborotlar sonli miqdorda qayta ishlanadi, bu sonlar ikkilik sanoq sistemasi deyilib kompyuterning arifmetik asosini tashkil qiladi.

Sanoq tizimlar deb, sonlarni raqamlar orqali ma'lum tartibda qonun-qoidalar yordamida yozilishiga aytiladi.

Kompyuterda quyidagi sanoq tizimlari qo'llaniladi:

II lik sanoq tizimi – 0 va 1 dan iborat ikkita raqam.

VIII lik sanoq tizimi – 0,1,2,3,4,5,6,7 dan iborat sakkizta raqam.

XVI lik sanoq tizimi – 0,1,2,3,4,5,6,7,8,9, A, B, C, D, E, F dan iborat o'n oltita raqam ishlatiladi.

Ixtiyoriy 10 lik sanoq tizimida berilgan sonni 2 lik, 8 lik va 16 lik sanoq tizimiga o'tkazish uchun berilgan sonni talab qilingan sanoq tizim asosiga ketma-ket bo'lish orqali bajariladi. Bo'lish amali bo'linma bo'luvchidan kichik bo'lguncha davom ettiriladi.

Umumiy holda biror N sonini ixtiyoriy asosli sanoq tizimida ifodalash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$N = a_m g^m + a_{m-1} g^{m-1} + a_{m-2} g^{m-2} + \dots + a_1 g^1 + a_0 g^0 + a_{-1} g^{-1} + \dots + a_{-k} g^{-k} = \sum_{i=k}^m a_i g^i \quad (1)$$

$i=k$

Bunda,  $a_i$  - 0 dan 9 gacha bo'lgan ixtiyoriy son.  $g$  - sanoq tizimning asosi.

$m$  va  $k$  - lar musbat sonlar.

Bu formuladan tashqari quyidagi formula orqali ixtiyoriy asosli sonni o'nli sanoq tizimiga o'tkazish mumkin:

$$N = \{(a_m g + a_{m-1})g + a_{m-2}\}g + \dots + a_0 \quad (2)$$

Misol: Sakkizlik sanoq tizimida berilgan 256 sonini o'nlik sanoq tizimiga o'tkazish talab qilingan bo'lsa, yuqoridagi (2) formuladan foydalanish mumkin:

$$256_8 = [(2*8+5)*8]+6 = 168+6 = 174_{10}$$

Kompyuterning alohida qismlarini yaratishda quyidagi fizik qurilma bloklari keng tarqalgan:

Triger – deb ikki turg'un holatning birida turgan hamda teskari aloqa vositasiga ega bo'lgan kompyuter elementlariga aytiladi. Registrlar – deb bir necha sondagi trigerlar, mantiqiy elementlar birlashmasidan tashkil topib, berilgan axborotni o'z xotirasida saqlash, kerak bo'lgan holda o'zgartirish va uzatish uchun mo'ljallangan tezkor xotira qurilmasiga aytiladi.

Sanagich – bu, o'z kirishiga kelib kirayotgan ma'lum bir shakldagi signal yoki impulslarni sanash uchun mo'ljallangan qurilmadir.

Jamlagichlar – kompyuterda sonlarni qo'shish uchun xizmat qiladi. Uning ishlash tamoyili sonlarni qo'shish qoidasiga asoslangandir.

Kompyuterga kirayotgan axborotni kodlovchi qurilma shifrador, kompyuterdan olinayotgan natijani yana kodlash amalining teskarisiga o'tkazuvchi qurilma deshifrador deb ataladi. Deshifradorlar diodlar, tranzistor, ferromagnit o'zaklar, integral sxemalar, mantiqiy elementlar asosida qurilishi mumkin. Deshifradorlar ikkilik, sakkizlik, ikkilik – o'nlik, o'n oltilik sanoq sistemalariga moslanishi mumkin.

## Nazorat topshiriqlari

### 1 – darajali topshiriqlar.

1.1.1. “Kompyuter” so'zining ma'nosini tushuntiring?

1.1.2. Kompyuterlarning yaratilishining asosini tushuntiring?

1.1.3. IBM PC tipidagi kompyuterlar haqida ma'lumotlar bering?

1.2.1. Kompyuterlarning qanday qismlardan tashkil topgan?

## **2 – darajali topshiriqlar.**

1.2.2. Kompyuterlar qanday guruhlariga bo'linadi?

1.2.3. Shaxsiy kompyuter deyilishiga sabab nima?

1.2.4. Monitor, klaviaturalarning qanday turlari mavjud, ularni tahlil qiling.

## **3 – darajali topshiriqlar.**

1.2.5. Shaxsiy kompyuterlarning qo'shimcha qurilmalarining turlarini tahlil qiling.

1.2.6. Kompyuter tizimli blokining asosiy elementlarini tahlil qiling?

## **4 – darajali topshiriqlar.**

1.2.7. Shaxsiy kompyuterlarning sifati qanday belgilariga qarab aniqlanadi?

O'z xulosalaringizni keltiring?

**2-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi:** Shaxsiy kompyuterlarning asosiy qurilmalari va ularning vazifasi haqida ma'lumotlar berish.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

2.1. Shaxsiy kompyuterning asosiy qurilmalarini ajrata oladi.

2.2. Asosiy qurilmalar vazifasini izohlay oladi.

### **2-asosiy savolning bayoni:**

Shaxsiy kompyuterlar quyidagi uchta asosiy qurilmalardan tashkil topgan: tizimli blok, monitor va klaviatura.



**Tizimli blok** - kompyuterning eng muhim qismi bo'lib, u kompyuterning asosiy elektron qurilmalarini o'z ichiga oladi. Shuning uchun u shaxsiy kompyuterning eng muhim tashkil etuvchilaridan biri sanaladi. Tizimli blokning tarkibi quyidagilardan iborat:

- Tizimli plata;
- Disk yurituvchi;
- Qattiq disk(vinchestr);
- Tok manbai bloki.




**Tizimli plata** – maxsus materialdan yasalgan plastinada joylashgan mikrosxemalardan iborat bo‘lib, ular o‘zaro bog‘lovchi elektr toki o‘tkazuvchi yo‘llari bilan bog‘langan. Tizimli plata kompyuterning eng muhim elementlarini o‘zida jamlaydi, jumladan:

- Markaziy protsessor;
- Tezkor xotira mikrosxemalari;
- Doimiy xotira qurilmasi;
- Taymer(joylashtirilgan soatlar);
- Kengaytirish tutashmalari va boshqalar.



Tizimli plataning eng muhim elementlaridan biri – **markaziy protsessor**dir. Dastur bilan berilgan ma’lumotlarni o‘zgartiradigan, barcha hisoblash jarayonlarini boshqaradigan hamda hisoblash ishlariga tegishli moslamalarning o‘zaro aloqasini o‘rnatadigan qurilma **protsessor** deb ataladi.



**Tezkor xotira** - o‘zida ayni vaqtda kompyuter ishlayotgan dasturlar uchun ma’lumotlar shu bilan birga ishning natijasi saqlanadigan mikrosxemalardan tashkil topgan.



**Doimiy xotira** BIOS(Basic Input-Output System – kiritish va chiqarishning baza tizimi) kompyuterdagi asosiy dasturlar to‘plamini saqlovchi mikrosxemadir. Uning tezkor xotiradan farqi shuki, kompyuter tok manbaidan o‘chirilganda ham axborotni doimiy saqlaydi.

**Qattiq disk**(vinchestr) – axborotni o‘qish, yozish va saqlash qurilmasidir. Vinchestrning axborot sig‘imi 20 Mbaytdan 120 Gbaytgacha bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, «Vinchestr» markaziy protsessorga axborotni disk yurituvchiga qaraganda tezroq uzatadi.

Tizimla platada yana boshqa ko‘plab qurilmalar joylashgan bo‘lib, ular haqidagi ma‘lumotlar bilan mustaqil tanishib olish tavsiya etiladi.

**Disk yurituvchi va yumshoq disk** - kompyuterda dastur, matn, rasm va boshqa ko‘rinishdagi ma‘lumotlarni saqlash uchun mo‘ljallangan. Odatda ular alohida ishlamaydi. Agar solishtiradigan bo‘lsak, disketalarsiz diskyurituvchi go‘yo kassetasiz magnitofondir. **Diskyurituvchi** – disketadagi axborotni yozish va o‘qish uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, **disketa** axborotni uzoq vaqt saqlash uchun maxsus vositadir.



**Monitor**(displey) - matn va tasvir ko‘rinishdagi axborotlarni ekranga chiqarish qurilmasi bo‘lib, hozirgi vaqtda monoxrom va rangli monitorlar mavjud.



**Klaviatura** – ma‘lumotlarni kompyuterga kiritish qurilmasidir. Klaviaturada bir qancha tugmachalar joylashgan bo‘lib, ular bajaradigan funksiyasiga qarab to‘rt guruhga ajratiladi:

- Asosiy tugmachalar;
- Boshqaruv tugmalari;
- Tahrir qilish tugmalari;
- Funksional tugmachalar.

**Asosiy tugmachalarga** - harflar, raqamlar joylashgan tugmachalar kiradi. Bu tugmachalar yordamida kerakli ma'lumotlar kompyuterga kiritiladi.

**Boshqaruv tugmalariga** - Enter, Esc, Ctrl, Alt, CapsLock, NumLock, Shift, Tab va kabi tugmachalar kiradi. Ularda turli boshqaruv ishlarini amalga oshirish mumkin.

**Tahrir qilish tugmalariga** - Delete, Insert, Home, End, PageUp, RageDown kabi tugmachalar kiradi. Ular yordamida kiritilgan matnlar ustida tahrirlash ishlari olib boriladi.

**Funksional tugmachalarga** klaviaturadagi F1 dan F12 gacha bo'lgan tugmachalar kiradi. Kompyuterda amaliy dasturlarning ish tartibiga ko'ra har bir funksional tugmachaning o'z vazifasi bo'ladi. Ko'pgina hollarda funksional tugmachalar yordamida ma'lum bir vazifalarni bajarish mumkin.

**Klaviatura** - axborot va ma'lumotlarni kompyuter xotirasiga kiritishga va kompyuter ishini boshqarishga mo'ljallangan qurilma hisoblanadi. Klaviaturalar o'zining tuzilishi ya'ni tugmachalar soni va joylashishiga qarab har xil kompyuterlarda har xil bo'lishi mumkin, lekin ularning vazifasi o'zgarmaydi.

Hozirgi vaqtda qo'llanilayotgan IBM PC tipidagi kompyuterlarda ikki xil klaviatura ishlatiladi:

1. Standart holdagi kichik klaviatura (tugmachalar soni 84 ta)
2. Kengaytirilgan holdagi katta klaviatura (tugmachalar soni 101, 103 va 105 ta bo'lishi mumkin)

Bundan tashqari klaviaturalar lotin xarflarining joylashuviga ko'ra ham farqlanadi:

1. Amerika va Angliya standarti - QWERTY
2. Fransuz standarti - AZERTY.

Klaviaturadan foydalanish tartibi quyidagicha:

Klaviaturadan kichik harflarni kiritish uchun harf joylashgan tugmacha o'zi bosiladi, katta qarflarni kiritish uchun kiritilishi kerak bo'lgan harf Shift tugmachasi bilan birgalikda bosiladi. (Bunda birinchi Shift bosilib, qo'yib yubormasdan kerakli harf bosiladi).

Maxsus tugmachalar vazifasi:

**Tab - kursorni bir oynadan ikkinchi oynaga o'tkazish, matn dasturlarida abzatsdan yozishga o'tkazish.**

Caps Lock - bosh harflar bilan yozishga o'tkazish.

↵ (Enter) - berilgan buyruqni kiritish va bajarish, matn dasturlarida kiritilayotgan satrni tugatish keyingi satrga kursorni o'tkazish. (Ba'zi kompyuterlarda RETURN tugmasi hisoblanadi).

**Delete (Del) - kursor o'rnida turgan belgini o'chirish va kursordan o'ngda turgan belgini tortish va o'chirish.**

Insert (Ins) - kursorning holatini o'zgartirish.

← BS (Back Spase) - kursordan chapda turgan belgini o'chirish.

←,↑,→,↓ - **yo'naltiruvchi strelkalar kursorni mos kelgan tomonga harakatlantirish.**

Home, End - kursorni mos ravishda satr boshiga va satr oxiriga keltirish.

**Page Up, Page Down - kursorni mos ravishda sahifa boshiga va sahifa oxiriga keltirish.**

Num Lock - klaviaturaning qo'shimcha tugmachalarini ishga tushirish.

Esc - voz kechish tugmasi, berilgan buyruqni bekor qilish.

**F1 - F12 - maxsus amallarni bajaruvchi funksional tugmachalar bo'lib, turli dasturlarda turli vazifalarni bajaradi.**

**Ctrl, Alt, Shift - tugmachalari boshqa tugmachalarning vazifasini o'zgartirish uchun ishlatiladi.**

Print Screen - tugmasi ekrandagi tasvirni printeriga chiqaradi.

Pause Break - bajarilayotgan dastur ishini to'xtatadi.

Tugmachalar majmui:

Ctrl+Break - ishlayotgan dasturning tugashini ta'minlaydi.

Ctrl+Alt+Delete - Operatsion sistemani qayta yuklash, kompyuterni qayta o'chirib yoqish.

Ctrl+C – buyruq yoki dastur ishini tugatish.

Ctrl+P - ekrandagi ma'lumotni printerga chiqarish.

Ba'zi maxsus tugmachalar ma'nosi:

Esc ("Eskeyp") - ubejat - bekor qilish.

Back Space – orqaga - o'chirish.

Tab (Tabulyatsiya), Ctrl (Kontrol), Alt (Alternativa).

Enter (kiritish), Del (Delete ("delit" - udalit).

Ins (Insert - "insert" - qo'yimoq(vstavit)).

## Nazorat topshiriqlari

### 1 – darajali topshiriqlar.

2.1.1. Shaxsiy kompyuterlarning asosiy qurilmalari qaysilar va ularning vazifasini

izohlang?

2.1.2. Tizimli blok qaysi qurilmalardan tashkil topgan?

2.1.3. Tizimli plata va uning eng muhim elementlari qaysilar?

2.2.1. Tezkor va doimiy xotiralarning vazifalarini farqlang.

### 2 – darajali topshiriqlar.

2.2.2. Diskyurituvchi, qattiq va yumshoq disklarni farqlang.

2.2.3. Kompyuterda axborotni vaqtincha saqlovchi qurilma qaysi?

a) Protsessor b) Operativ xotira v) Vinchestr g) Tashqi xotira d)

Monitor

2.2.4. Kompyuter qaysi qurilmasi inson salomatligiga zararli ta'sir ko'rsatishi mumkin ?

a) Printer b) Modem v) Monitor g) Tizimli blok d) Skaner

### **3 – darajali topshiriqlar.**

2.2.5. Klaviatura necha guruhga ajratiladi, unda tugmachalarning joylanishi hamda vazifalarini tahlil qiling

2.2.6. Maxsus va funtsional tugmachalarning vazifalarini farqlang va tahlil qiling.

### **4 – darajali topshiriqlar.**

2.2.7. Klaviaturada tugmachalar majmui yordamida amalga oshiriladigan buyruqlarni tahlil qiling va ularning vazifalari haqida o‘z taklif va xulosalaringizni keltiring.

**3-asosiy savol bo‘yicha darsning maqsadi:** Talabalarga shaxsiy kompyuterlarning qo‘shimcha qurilmalari haqida ma’lumot berish.

#### **Identiv o‘quv maqsadlari:**

3.1. Qo‘shimcha qurilmalar tarkibini sanab bera oladi.

3.2. Qo‘shimcha qurilmalar vazifasini izohlay oladi.

#### **3-asosiy savolning bayoni:**

Kompyuterning yanada samarali ishlashini kengaytirish maqsadida ularga qo‘shimcha qurilmalar ulanadi. Qo‘shimcha qurilmalarga quyidagilar kiradi: Sichqoncha; Printer; Skaner; Plotter; Modem; Kompakt disklar va h.k.



**Sichqoncha** – kompyuterga axborot kiritishni va murakkab dasturlar bilan ishlashni yengillashtiruvchi qurilma. Albatta, barcha dasturlar sichqoncha bilan ishlashga mo‘ljallangan emas, lekin shunday dasturlar borki, ularning ishini sichqonchasiz boshqarish juda qiyin (masalan, tasvir muharrirlari bilan ishlaganda). Odatda sichqoncha tugmasining soni ikki va uchta bo‘ladi. Ikki tugmali sichqonchaning chap tugmasi Enter tugmasi vazifasini, o‘ng tugmasi esa Esc tugmasi vazifasini bajaradi (o‘ng qo‘lda ishlovchilar uchun).

Uch tugmalilarda o'ng va chap tugmachalar yuqoridagi vazifalarni, o'rtadagi tugmacha esa to'ldiruvchi Enter tugmasiday ishlaydi.



**Printer** – kompterdagi ma'lumotlarni qog'ozga chiqaruvchi qurilmadir. Printerlarning hozirgi kunda quyidagi turlari mavjud: matritsali, lazerli, siyohli.

**Matritsali printerlar** - ma'lumotlarni nuqtalar yordamida bosmaga chiqaradi. Bunday printerlar boshqa printerlarga qaraganda sekinroq ishlaydi, chop qilish sifati uncha yaxshi emas va chop qilish tezligi ham katta emas. Ularning asosan 28 va 48 ignalilari keng tarqalgan. Ignalar son ko'pligi printerning yaxshi ekanligidir.

**Lazerli printerlar** – ma'lumotlarni sifatlilik chiqarishi va tezligining yuqori ekanligi bilan boshqa printerlardan ajralib turadi. Uning rangli va rangsiz turlari mavjud. Lazerli printerlarda chop qilish juda qulay bo'lib, u minutiga 8-15 varaqni ba'zilar esa 40 varaqqacha bo'lgan ma'lumotlarni chop etishi mumkin. Bu printerning bir kamchiligi – unda ishlatiladigan toner(rang) va katrijning tez almashtirilib turilishidadir.

**Siyohli printerlar** – maxsus siyohlarni purkash yo'li bilan ishlagandigi uchun lazerli deb ataladi. Bu printerlarning rangli va rangsiz turlari mavud bo'lib, ularda ma'lumotlarni chop qilish sifati bilan boshqa printerlardan ajralib turadi. Ularning kamchiligi siyohning tez tamom bo'lib qolishi va uning nozikligidir. Bu printerlar matnli ma'lumotlarni tez, grafik tasvirlarni esa matnga nisbatan sekinroq chop etadi.



**Skanner** – kompyuterga matnli yoki tasvirli ma'lumotni kirituvchi qurilmadir. Skanerlar belgilarni ham anglaydi, shuning uchun qo'lyozmalarni ham kompyuterga kiritish mumkin. Buning uchun maxsus dastur bo'lishi zarur.

**Plotter** – chizmalarni qog‘ozga chiqaruvchi qurilmadir. Plotterlar asosan loyihachilar, shahar arxitekturasi bilan shug‘ullanuvchilar kabi mutaxassislarga qulay.



**Modem** – bu kompyuter va telefon tarmog‘i o‘rtasidagi tarjimon hisoblanadi. U telefon tarmog‘i orqali kompyuterdagi ma‘lumotlarni boshqa bir kompyuterga jo‘natish va qabul qilish imkoniyatini beradi. Modemlarning ichki va tashqi turlarga bo‘linadi.

Ichki modem plata ko‘rinishida kompyuter ichiga maxsus joyga o‘rnatiladi. Tashqi modem esa, ham faks ham modem rolini o‘ynaydi va alohida qurilma sifatida kompyuterga ulanadi. Hozirgi paytda modem vazifasini bajaradigan hamda tarmoqlarda bevosita ishlash vazifasini bajaruvchi flesh qurilmalari mavjud.

**Kompakt disk** – bu axborot saqlashda qo‘llaniladigan plastik disk bo‘lib, o‘zida katta hajmdagi axborotni saqlay oladi. Kompakt disklarning axborot sig‘imi 650 Mbayt va undan yuqori bo‘lishi mumkin. Hozirda kompakt disklarning bir qancha turlari ishlab chiqilmoqda. Jumladan, CD ROM (Compact Disk Read Only Memory – faqat o‘qish uchun lazerli disk) va CD Writer (yozuvchi) kabi turlaridan hujjatlarning elektron versiyalarini saqlashda bu kabi disklardan unumli foydalanilmoqda.

**Disketa** – ma‘lumotlarni, dasturlarni doimiy saqlash, ayiraboshlash maqsadlarida ishlatiladi. Disketalarning FDD(Floppy Disk Drover-egiluvchan disk qurilmasi) va HD(Hidy density – yuqori zichlik) kabi turlari mavjud bo‘lib, asosan HD tipli disketalardan foydalanilmoqda.

Disketalar axborot sig‘imiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

- 5.25 dyuymli (133 mm)-bunday disketalarning 180, 360 Kbayt va 1.2, 2 Mbayt axborot sig‘imli turlari mavjud.

- 3.5 dyuymli (89 mm) –bunday disketalarning 0.72, 1.44, 2 va 2.88 Mbayt axborot sigʻimli turlari mavjud.

Bulardan tashqari yana bir qancha qoʻshimcha qurilmalar mavjud boʻlib, ularning vazifalari bilan mustaqil tanishishingiz mumkin.

### **Nazorat topshiriqlari.**

#### **1 – darajali topshiriqlar.**

- 3.1.1. Shaxsiy kompyuterlarning qoʻshimcha qurilmalari qaysilar va ularning vazifasini izohlang?
- 3.1.2. “Sichqoncha” manipulyatori, uning tuzilishi va vazifalarini tushuntiring.
- 3.1.3. Printer qurilmasi va uning vazifalari.
- 3.2.1. Skaner va plotter qurilmalarining vazifalarini farqlang.

#### **2 – darajali topshiriqlar.**

- 3.2.2. Printer va uning turlarini farqlang.
- 3.2.3. Modem qurilmasi, turlari va ularning vazifalarini farqlang.
- 3.2.4. Magnitli disklar nima va ularning qanday turlari mavjud?

#### **3 – darajali topshiriqlar.**

- 3.2.5. Printer va uning turlarining vazifalarini bir-biri bilan taqqoslang hamda tahlil qiling.
- 3.2.6. Maʼlumotlarni saqlash qurilmalarining hozirgi holati va ularning sigʻimlari haqida Sizning xulosalaringiz?

#### **4 – darajali topshiriqlar.**

- 3.2.7. Shaxsiy kompyuterning asosiy va qoʻshimcha qurilmalari bir-biri bilan oʻzaro bogʻlanishi haqida Sizning takliflaringiz va xulosalaringiz?

#### **Mavzu boʻyicha mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Monitorlar haqida maʼlumot tayyorlang.
2. Printer va uning turlari haqida maʼlumot tayyorlang.

### 3. Skanerlar va ularning turlari haqida ma'lumot tayyorlang.

Ushbu muammolar hal qilishni kompyuter va videoprojektor yordamida amaliy tarzda ko'rsatiladi. Bunda o'quvchilarga bilimlar ko'rgazmali va namoyishli holatda yetkazib beriladi.

#### 3.2. «Ish stoli parametrlarini sozlash» mavzusini o'qitish metodikasi

«Ish stoli parametrlarini sozlash» mavzusini o'qitishda turli metodlardan foydalanish mumkin. Bu mavzuni o'qitishda biz «BBB» texnologiyasi, «Ven diagrammasi» grafik organayzeri va «Yelpig'ich» metodidan foydalanamiz

#### BBB texnologiyasi


Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Kompyuter xususiyatlarini o'zgartira olaman	Boshqalar kompyuterim xususiyatlarini o'zgartira olmasin	Удалить пункт «Свойства» из контекстного меню значка
Ish stoli rasmini o'zgartira olaman	Ish stolim rasmini o'zgartira olmasin	Фоновые рисунки рабочего стола, Запретить изменения фона рабочего стола
Bosh menyu elementlarini tartiblay olaman	Bosh menyu elementlarini o'zgartira olmasin	Меню «Пуск» и панель задач
Vazifalar panelini mahkamlay olaman	Vazifalar paneli o'rnini o'zgartira olmasin	Закрепить панель задач
Zastavkalarini o'chirib qo'ya olaman	Kompyuterimga zastavka o'rnata olmasin	Запретить изменения заставки
Korzinani o'zinga mos xolda sozlay olaman	Korzina parametrlarini o'zgartirib qo'ymasin	Удалить пункт «Свойства» из контекстного меню компонента «Корзина»



## Yelpig'ich metodi

oddiy usulda sozlash		guruh siyosati	
Yutug'i	Kamchiligi	Yutug'i	Kamchiligi
Dars davomida sozlash ishlarini amalga oshirishi mumkin	Xohlagan odam sozlash ishlarini amalga oshira oladi	Administrator sozlagan sozlamalarni talabalar o'zgartira olmaydi	Dars davomida sozlash ishlarini amalga oshirish uchun administrator yordami zarur bo'ladi
<p>Xulosa: Guruh siyosati yaxshi, chunki sozlash ishlarini har bir kompyuterda amalga oshirish har darsda bo'lmaydi, buning uchun uch-to'rt darsda muammo tug'iladi xolos, odiy usulda qolishi kerak bo'lsa har bir parada sozlashni amalga oshirishga olib kelishi mumkin</p>			

## Ven diagrammasi



## XULOSA

Mazkur bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida, quyidagi xulosalarga keldim:

- Guruh siyosati orqali kompyuterlarni sozlash tarmoqdagi kompyuterlarni boshqarish uchun qulay;

- Guruh siyosati yordamida kompyuter va foydalanuvchi konfiguratsiyalarini sozlashni Windows operatsion tizimlari qo'llab quvatlaydi;

- Kompyuter konfiguratsiyalarini oddiy usul bilan ham sozlash mumkin, lekin uni o'zgartirish barcha oddiy foydalanuvchilarning ham qo'lidan keladi, guruh siyosati bilan sozlanganda esa oddiy foydalanuvchi o'zgartirishlarni amalga ishira olmaydi;

- Tizimni sozlashni o'rganish uchun BBB texnologiyasidan foydalanish o'quvchining bilimini oshirishga, Yelpig'ich metodi fikrlashga, Ven diagrammasi esa tasavvur qilib, farqlarini taqqoslashga ijobiy yordam beradi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. И.А.Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент, «Маънавият», 2009 й.
2. Fizika, matematika va informatika fanlarini o'qitishning dolzarb muammolari. Hududiy ilmiy-uslubiy anjuman materiallari. 131-bet.
3. Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш Вазирлигини ташкил этиш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-4702 сонли Фармони. Тошкент шаҳри, 2015 йил 4 февраль.
4. Ўзбекистон Республикасининг «Ахборотлаштириш тўғрисида» қонуни, 2004 йил, 11 феврал.
5. Максим Кузнесов, Игор Симдянов, Сергей Голшев. PHP5 практика создания ВЕБ-сайтов. Санкт-Петербург, «ВХВ-Петербург», 2009.
6. Глушаков С.В., Ломотко Д.В. Базы данных (2001). Издательство : Родина-Фодио. 2002г. с504
7. М.Груббер. Понимание SQL. Москва, 1993 г.
8. Лаура Томпсон, Люк Веллинг /пер с Англ. «Разработка Веб-приложений на PHP и MySQL» Москва- Санкт-Петербург-Киев. «ДиаСофт», 2003г. с 672
9. Малыгина М.П. Базы данных: основы, проектирование, использование. Издательство: ВHV-Санкт-Петербург, 2004г. с499
- 10.PHP дастурлаш тилининг расмий сайти <http://php.net>
- 11.Apache веб серверининг расмий сайти <http://apache.org>
- 12.MySQL маълумотлар манбаасининг расмий сайти <http://mysql.org>
- 13.Denwer пакетининг расмий сайти <http://denwer.ru>
- 14.Xampp пакетининг расмий сайти <http://xampp.com>
- 15.Yii фреймворкининг расмий сайти <http://yiiframework.com>
- 16.[https://ru.wikipedia.org/wiki/Система\\_управления\\_содержимым](https://ru.wikipedia.org/wiki/Система_управления_содержимым)
- 17.<https://ru.wikipedia.org/wiki/Фреймворк>
- 18.<https://ru.wikipedia.org/wiki/Yii>
- 19.<https://ru.wikipedia.org/wiki/WAMP>
- 20.[https://ru.wikipedia.org/wiki/Денвер\\_\(программа\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Денвер_(программа))